

TARBIYA DIAGNOSTIKASINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI

G'aybullayeva Zarnigor Farhod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi

1-22-guruh talabasi

Annotatsiya

Tarbiya diagnostikasi -tarbiya faoliyatidagi natijalarni sarhisob qilish,amaliy xulosalar yasash,bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilash va shuningdek faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish.Tarbiya diagnostikasi bu pedagoglarning o'quvchilar bilan individual ta'lim va tarbiya berilishini jadallashtiradi.Bunda tarbiya diagnostikasining o'ziga xos ayrim jihatlari mavjuddir;taqqoslanadi,pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.Pedagogik va tarbiya diagnostikasining o'xshash tomoni shundaki har ikkalasida ham natijalarga ko'ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi yotadi.Baho shkalasi to'g'ri diagnos qo'yishning asosiy mezonini hisoblanadi.

Kalit so'zlar; Tarbiya, Diagnostika, Metodlar, Pedagogik diagnostika, Faoliyat, Natija, Kuzatish, Uzviylik, Individual, Isbotlash, Baholash

Abstract

Educational diagnostics-summarizing the results of educational activities,making practical conclusions,determining empty or successful places,and also taking it into account in the next stages of activity.Diagnostics of education accelerates individual education and training of the pedagogues with students.There are some unique aspects of educational diagnostics;they are compared and analyzed pedagogically.Pedagogical and education diagnostics are similar in that both of them include the proof of the analyzes carried out according to the results.The rating scale is the main criterion for making a correct diagnosis.

Key words; Education, Diagnosis, Methods, Pedagogical diagnosis, Activity, Result, Observation, Integration, Individual, Proof, Evaluation.

Tarbiya diagnostikasi bu faoliyat natijalarini sarhisob qilish,xulosalar yasash,keying jarayonlarda esa uni hisobga olishga aytiladi.Tarbiya diagnostikasi nafaqat tarbiyada balki ta'lim jarayonida ham muvaffaqiyatli o'zlashtirilib,undan samarali foydalanilmoqda.Tarbiya diagnostikasi bilan pedagogik diagnostika chambarchas bog'liq hisoblanadi.Farqi ular qaysi tomondan o'rganganiga qarab aniqlanadi.Har bie olimlar,har davrning olimlari bunga turlicha yondoshganlar.Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilgan bilimlarni o'zlashtirish asosi deydilar.boshqalar diagnostika o'qitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb hisoblaydilar.Yana ayrimlar esa diagnostic egallagan bilim sifatini nazorat

etishdir,degan fikrni ilgari suradilar.Taniqli pedagog olim Matserman pedagogic diagnostikani „o’quvchi o’zlashtirishi bilan o’quv materialini to’g’ri tanlash,maqsadni to’g’ri yo’naltirish mezonidir” deb hisoblaydi.

Aslida pedagogik diagnostika tarbiya diagnostikasi singari bilish jarayonining asisini tashkil etib,xulosa chiqarishga zamin yaratadi.

Pedagogik diagnostika;

Birinchidan,o’quvchiga individual ta’lim berish jarayonini jadallashtiradi

Ikkinchidan,bilim va faoliyatni to’g’ri baholash uchun zamin yaratadi

Uchinchidan,pedagogik diagnostika yordamida ta’lim-tarbiya jarayoni to’g’ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to’g’ri baholanadi,boshqacha qilib aytganda,pedagogic diagnostika orqali ta’lim obykti,ta’limky tushunchalar qay darajada o’zlashtirilganligi tahlil etiladi.

SHunday qilib biz tarbiya diagnostikasini o’rganar ekanmiz albatta pedagogik diagnostika bilan chambarchas ekanligining guvohi bo’lamiz.Xo’sh pedagogik diagnostikaga kim qachon asos solganligi haqida qisqacha ko’rib o’tsak.Unga 1864-yilda AQSH olimlari D.Fisher va R.Reslar asos solganlar,1908-yildan boshlab esa olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o’quvchi bilimni sinash tizimini tadbic etgan.Egallangan malakani aniqlashga kiritilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostic faoliyatning ayrim jihatlari;

1-Taqqoslash

2-Pedagogik tahlil

3-avvaldan ayta bilish

4-Interpretatsiya

5-Pedagogik diagnostika natijalarini o’quvchilarga yetkazish

6-amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o’quvchilarga yetkazish

7-Pedagogik diagnostika metodlarini to’g’ri belgilashdan iborat bo’lgan

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kategoriyalari;

-Haqqoniylik

-Ishonchlilik

-Puxtalik kabilarga asoslanadi.

Tarbiya diagnostikasining metodlari turli xildir;shulardan bittasi kuzatish metodi hisoblanadi.To’g’ri tahlil qilish uchun ham avvalo kuzatish metodidan foydalanishimiz kerak bo’ladi.CHunki kuzatish orqali o’quvchining o’qishga bo’lgan munosabatlarini,mas’uliyatini,bilimga intilishini aniqlaydi.Tabiiyki bunday hislatlarda uning xarakteri,xulqi butun ijtimoiy jihatlariga katta ahamiyat beriladi.CHunki o’quvchining bilim va ko’nikmalarini attestatsiya qilishda shaxsiy,oilaviy,axloqiy ko’rsatkichlar muhim rol o’ynaydi.

Pedagogik diagnostikaning so’roqlash metodi.Bu metod qadimdan mavjud bo’lgan metodlardan biri hisoblanadi.Ya’ni u o’qish va o’qitish jarayoni

boshlanganidan beri mavjuddir, uning asosiy tomoni shundaki u savol-javob tarzida olib boriladi va bunda axborot almashinadi.

Keyingisi test metodi-ilmiy asoslarga quriladi va ma'lum qonun-qoidalar zahirida olib boriladi. Bu metod pedagogikada har jihatdan qulay va sifatli ma'lumot berishi bilan ajralib turadi. Testga turli bosqichlarda turlicha ta'riflar berilgan masalan, nemis olimi „Test shaxsning turli xolatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatni aniqlovchi ilmiy metoddir. Test metodining turli xil yo'nalishlari mavjuddir;

-Ta'limiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test

-SHaxs taraqqiyotini va uning imkoniyatlarini aniqlaydigan test;

-Intellectni aniqlaydigan test;

-Umumiy natijalarni aniqlaydigan test

-Muayyan hududda, maktabda u yoki bu fanni o'qitish samaradorligini ko'rsatuvchi test;

-Professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsning funksional imkoniyatlarini aniqlovchi test;

-SHaxs psixologiyasini ochib beruvchi test;

-SHaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test;

-Klinik test va h.k

O'quvchilar bilimni bu tarzda baholash 1930-yilda boshlangan.

Barcha metodlarni qo'llashdan maqsad kamchilik va nuqsonlardan to'g'ri va amaliy xulosalar chiqarish, faoliyatning asosiy va to'g'ri yo'nalishini belgilab olish va ularni bartaraf qilishda sabot bilan ishlashdan iborat.

Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta qilingan tahliliy xulosalar natijasining bir xilligi qayd etilgan hollardagina ta'minlanadi. Agar buni muayyan maktab, sinfning hayotiy faoliyati bilan bog'lasak, mabodo o'qituvchi ilgarigi ishini oradan bir necha vaqt o'tib, aynan o'shanday baholasa, ishonchlilik paydo bo'ladi, lekin bunday hol afsuski amaliyotda kam uchramoqda. Pedagogik diagnostika natijalari qachon uzil-kesil tasdiqlanadi. Tajribalar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bo'ladi. Chunki bunda to'rt xil xulosa, bir xil natija bilan baholanadi bular;

-mazmunning tasdig'I

-har xil usul bilan olingan natijalarning bir xilligi

-natijalarga ko'ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;

-Loyihalashning tasdiqlanishi

Pedagogik diagnostikani ta'lim sohasining istalgan sohasini tahlil qilishda ham joriy etish mumkin. Masalan, Xalq ta'lim vazirligi xalq ta'limining hududiy boshqarma va bo'limlari faoliyatini uzoq yillardan beri 15 yo'nalish bo'yicha aniq tahlil etib

bormoqda. Tahlil natijalari esa har qanday bahs va munozaradan holidir.

XULOSA;

Bugungi maqoladan xulosa shuki tarbiya diagnostikasi bevosita pedagogik diagnostika bilan chambarchas bog'liq ekan xuddi ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmydigandek bu jumlar ham doimo yonma-yon keladi. Tarbiya diagnostikasining metodlari ichida test metodi o'zining siati va aniqligi bilan ajralib turar ekan.

REFERENCES:

1. Mixaylichev Ye.A. Norov SH.K. Didakticheskiye testy i sisteme mnogoetapnogo kontrolya znaniy studentov. BUX. ILPP, 1995.-24 s.
2. Farberman B.L. Ta'limda eng muhim yangilik .Ma'rifat. 1995 y. 24-may
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.uz